



Tadqiqot.uz

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



Crossref



**31 MAY
№28**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 28-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
25-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
28-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-25**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
28-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-25**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 28-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 16 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ГЕОГРАФИЯ

| | |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| 1. Sotiboldiyeva Ra'no Otamirzayevna OROL MUAMMOSI..... | 7 |
| 2. Sultonova Nargisa Ibodullayevna GEOGRAFIYA DARLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA INTEGRATSION TA'LIMNING AHAMIYATI..... | 9 |
| 3. Ramazonova Nazokat Toshevna, Shodmanova Shaxnoza Xalimovna GEOGRAFIYA FANLARINI O'QITISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH MUAMMO VA YECHIMLAR..... | 11 |
| 4. O'rozova Laylo Yusufboyevna GEOGRAFIYA FANINING RIVOJLANISH TARIXI..... | 13 |
| 5. Sultonova Fazilat GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION METODLAR..... | 14 |



ГЕОГРАФИЯ

OROL MUAMMOSI.

Sotiboldiyeva Ra'no Otamirzayevna.

Namangan viloyati, Chortoq tumani
13-umumiy o'rta ta'lim maktabi
geografiya fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Orol muammosi-global ekologik muammo. Tabiatni asrash har bir fuqaroning burchidir.

Kalit so'zlar: muammo, ekologiya, tabiat, ko'l, muhofaza, tabiat muhofazasi.

Hozirgi kunda sayyoramizda ko'plab ekologik muammolar borki, ularning ayrimlari tobora globallashib bormoqda. Ekologik muammolarga quyidagilar kiradi: ozon qatlamining yemirilishi, atmosferaning ifloslanishi, chuchuk suv muammosi, o'simlik va hayvon turlarining yo'qolib borishi, okean suvlarining ifloslanishi, o'rmon yong'inlarini ko'payishi, Orol muammosi, cho'llashish va boshqalar.

Hozirgi kunda global muammoga aylangan Orol muammosi birgina O'rta Osiyoda emas, balki jahon miqyosida dolzarb muammoga aylandi. Orol dengizi O'rta Osiyodagi eng yirik ko'l bo'lib, yirikligi uchun dengiz nomini olgan. Hozirgi kunda esa kattaligi jihatdan O'rta Osiyoda 2-o'rinni egallaydi. Orol dengizi O'zbekistonning shimoli-g'arbiy, Qozog'istonning esa janubi-g'arbiy qismida joylashgan. Orol dengizining qurishi 1960-yillarga borib taqaladi.

Orol dengizi qurishi natijasida uning o'rnida Orolqum cho'li paydo bo'ldi. Buning natijasida Orol muammosi global muammoga aylandi. Bunga yaqqol misol O'rta Osiyo hududida yerlarning sho'rlashishi, uchuvchan tuzlarning Osiyo qit'asining sharqiy hududlarida topilishidir. Orolbo'yi hududlarida istiqomat qilayotgan 5mln aholining orasida turli kasalliklarning kelib chiqishi, hayvonot va o'simlik dunyosining qisqarib borishi muammoning jiddiyigidan dalolatdir.

Orol dengizi muammosini kelib chiqishining asosiy sabablari:

1. Orol dengiziga quyiluvchi yirik daryolardan Amudaryo va Sirdaryo daryolarining asosiy suvi sug'orishga sarflanganligi.

2. Qizilqum va Qoraqum, Mirzacho'l cho'llarining o'zlashtirilishi.

3. Sirdaryo havzasida Aydarko'l va Arnasoy ko'llarining hududini kengayishi. 4. Amudaryo va Sirdaryo daryolarining tranzit daryo ekanligi uchun suvining bir qismi qumlarga singishi.

Orol dengizini yillar bo'yicha qiyosiy tahlili

| Yillar | Maydoni | Suv hajmi | Chuqurligi | Sho'rliigi | Quyilgan suv hajmi |
|--------|---------------------------|------------------------|------------|------------|----------------------|
| 1957 | 66,5 ming km ² | 1064,0 km ³ | 53,4 metr | 10-11% | 62,0 km ³ |
| 1977 | 55,7 ming km ² | 815, km ³ | 48,2 metr | 14-16% | 18,1 km ³ |
| 1989 | 41,2 ming km ² | 624,0 km ³ | 38,3 metr | 19-20 % | 3,9 km ³ |
| 2000 | 32,5 ming km ² | 400,0 km ³ | 32,5 metr | 22-24 % | 2,1 km ³ |

2019-yil 27-yanvarda Orol dengizining qurigan qismidan chuchuk suv chiqdi. Bu voqea butun O'zbekiston xalqini, jumladan, Qoraqalpog'iston xalqini quvontirdi. Shundan so'ng "Orol dengizini qutqarish xalqaro jamg'armasi" sammiti ish boshladi. Bu sammit O'rta Osiyodagi 5 ta davlat: Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'iziston davlatlari o'rtasida tashkil etildi. Sammitda Orol dengizini qutqarish uchun ko'plab g'oyalar ilgari surildi. O'zbekiston Orol bo'yi mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, aholining turmush darajasini



yaхshilash bo'yicha keng miqyosli loyihalarni amalga oshirdi. Orol dengizining qurigan 350 ming gektar maydoniga saksovul va sho'rga chidamli o'simliklar ekilib, butazorlar barpo etildi. Bunday maydonlarning umumiy maydoni qariyb 700 ming gektarga yetdi. Bu ishlarda O'zbekistonning ko'plab loyihalari amalga oshirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. P.Baratov.O'zbekiston tabiiy geografiyasi."O'qituvchi' nashriyoti.1996.91-95b.
2. K.Gadoyev,S.Berdiyeva.Sayyoramiz mo'jizalari.Toshkent-"O'zbekiston"-2016.
3. P.G'ulomov,N.Vahobov,P.Baratov,M.Mamatqulov.Geografiya.7-sinf darsligi.Toshkent -2017.
4. Internet ma'lumotlari:<https://www.uzavtoyul.uz>.<https://xs.uz.jizpi.uz>.



GEOGRAFIYA DARLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA INTEGRATSION TA'LIMNING AHAMIYATI

Sultonova Nargisa Ibodullayevna

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani

6-umumiy o'rta ta'lim maktabi Geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada geografiya darslarini samarali tashkil etish hamda ushbu fanni boshqa fanlar bilan bog'lab integratsiyalash usulida olib borishning foydali tomonlari bayon qilingan.

Kalit so'zlari: geografiya, integratsiya, ekskursiya, amaliy mashg'ulotlar.

Geografiya fanini o'qitishni hozirgi zamon talabi darajasiga ko'tarish masalasi uni boshqa fanlar bilan izchil bog'lab olib borishni talab qiladi. O'qituvchi o'z fani materiallarini o'rgatish bilan birga, o'quvchilarning boshqa fandan olgan bilim va malakalariga tayanishi, o'quvchilarga barcha fanlar o'rtasida o'zaro bog'lanish borligini ko'rsatish va ularga boshqa fanlarda olingan ma'lumotlardan foydalana bilishni o'rgatishi, ularning fikrlash qobiliyatlarini aktivlantirish, bilimlarini chuqurlashtirish zarur.

Geografiya o'qitishni boshqa fanlarga mustahkam bog'lab olib borish uchun o'qituvchining o'zi boshqa o'zaro bog'liq fan dasturlarini ham yaxshiroq bilishi, o'quv masalalarini boshqa dars o'qituvchilari bilan birga hal qilishi lozim. Geografiya amaliy ishlar sohasida ko'proq matematika bilan bog'lanadi. 5-sinfda geografiyadan o'quvchilar ob-havo bo'yicha o'rtacha kunlik, oylik va yillik ma'lumotlar to'playdilar. O'sha sinfda matematikadan oylik ob-havo taqvimini asosida o'rtacha harorat hisoblanadi. Demak, geografiyada ob-havo ustidan olib boriladigan kuzatish natijalari matematika darslarida bulutsiz, ochiq, o'zgaruvchan, yog'inli, sovuq kunlarning ustunsimon diagrammasini tuzishga asos bo'ladi.

Barometr va termometrlar bilan ishlash bo'yicha geografiyada ob-havoni kuzatish orqali 5-sinfda o'quvchilarda hosil qilingan bilim-malakalar va yuqori sinflarda ob-havoni o'lchashda fizikada beriladigan ma'lumotlarni osongina tushunib olishlariga yordam beradi.

Chizmachilik va rasm fanlariga oid dars materiallarini har tomonlama sinchliklab qarab chiqilsa, geografiyaga bog'lanish borligini ko'rasiz. 7-sinf o'quvchilari 1-mavzuda doirasimon diagramma chizadilar. Buni o'z o'lkasini ob-havosini kuzatish materiallari asosida chizish mumkin. Undan tashqari, shamollar guli misolida ham chizish mumkin. O'quvchilar chizma asboblarni ishlatish qoidalari hamda chizish usullari bilan tanishdilar. Demak, o'qituvchi o'z maqsadiga erishibgina qolmasdan, balki darslararo integratsiyani amalga oshiradi. Geografiyaning botanika va zoologiya bilan uzluksiz bog'anishi ob-havo va tirik tabiatni kuzatish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, o'quvchilarning maktab-tajriba uchastkasidagi ishlari meteorologik kuzatishlar natijasidan foydalanganda, amalga oshiriladi. Bu yaqin aloqadorlik geografiya va biologiya o'qituvchilari rahbarligida tabiatga qilingan kompleks ekskursiyalar orqali bajarish mumkin. Bu ekskursiyalar vaqtida botanika va geografiyadan kuzatish va amaliy ishlar bajariladi. 5-sinf dasturida geografiya hamda botanikadan kuzgi ekskursiya uyushtirish uchun alohida soat ajratilgan bo'lib, bu o'quvchilarning ikkala fanni o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirishda katta ahamiyatga ega. Ekskursiya uyushtirishda hozirgacha qiyinchilik tug'dirib kelayotgan narsa shuki, ko'p joylarda ekskursiyalar barcha fanlardan alohida-alohida o'tkazilib kelinadi. Berilgan 2-soatda o'qituvchi maqsadga erisha olmaydi. Natijada kun bo'yi band bo'lib, darslar qolib ketadi, ko'p joylarda ekskursiyalar uyushtirilmaydi. Natijada o'quvchilar bilimlarini amaliyot bilan bog'lay olmaydilar. Bu esa o'quvchilar darslarda olingan nazariy bilimlarining hayotiy tatbiqlarini o'rganishga, fanlararo bog'liqliklarni tushunishga va puxta bilim olishlariga salbiy ta'sir qiladi. Ana shunday qiyinchiliklardan holi bo'lishda darslararo aloqa katta ahamiyatga egadir. Masalan, kuzgi ekskursiyani geografiya o'qituvchisi biologiya o'qituvchisi bilan birga uyushtirishi orqali yuqoridagi qiyinchiliklardan qutulishi mumkin. Chunki, har ikki darsdan ekskursiya uyushtirish uchun ajratilgan soatlar dars jadvaliga kiritilsa, bir kunlik o'qishni qoplashi mumkin. Maktablarda "Ekskursiya haftasi" deb atalgan hafta tashkil qilinsa, bunda dars jadvali o'zgartiriladi. Har bir sinfga bir kun ajratilib, bu kunga geografiya va botanika darslari rejalashtiriladi. (faqat shu darslar jadvaliga kiritiladi). O'quvchilar oldindan ogohlantiriladi, ular ekskursiya uchun tayyorgarlik ko'radilar. Bunday usulni barcha maktablarda ham qo'llash yaxshi natija beradi. O'quvchilar boshqa darslardan olgan bilimlariga tayanib, geografik bilimlarini mustaqil o'rganishga kirishadilar.



Shu darsda uyushtirilgan darslar jonli o‘tadi, o‘quvchilarning boshqa darslarni o‘rganishdagi mas’uliyatini ham oshiradi. Darslararo aloqadan foydalangan holda ayrim masalalarni bir-biriga bog‘lab bayon etish maktab darsini o‘rganishni yengillashtirishga yordam beradi. O‘quvchilarning har xil fanlardan olingan bilimlarini bir butun kompleksga bog‘lash bu bilimlardan hayotda foydalanishga yordam beradi hamda o‘rganilayotgan darslarga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

Respublikamizdagi ilg‘or qishloq maktablarida tashkil etilgan maktab agrometeorologik postlarining ish tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, agrometpostlar ishida o‘quvchilarning ishtirok etishi geografiya o‘qishi hayotga yaqinlashtirishga bolalarni geografiya, biologiya va fizikadan olgan bilimlarni tajribada qo‘llashga yordam beradi. Ularda o‘z tumani, o‘lkasi tabiatini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni orttiradi, ularni ijtimoiy-foydali mehnatga o‘rgatadi. Chunki ular kuzatish natijalarini rasmiylashtirishda talaygina foydali ish bajaradilar: o‘tgan oyning o‘rtacha sutkalik o‘zgarishiga qarab temperatura grafigini tuzadilar, shamollar guli, quyoshning, o‘zgaruvchan, yog‘inli kunlarning diagrammalarini tuzadilar. Xulosa qilib aytganda, geografiya ta’limida integratsion ta’limning ahamiyati kattadir. Ular geografik bilimlarni chuqur o‘rganishga, o‘quvchilar qiziqishi va faolligini oshirish bilan birgalikda hayotiy va kasbiy ko‘nikmalarni xam rivojlantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda geografiya fanini rivojlantirish, jamiyatdagi nufuzini oshirish, amaliy ahamiyatini ko‘rsatib berish muhim hisoblanadi. Bu vazifani bajarishda integratsion ta’limdan o‘rinli foydalanish samaradorligi yuqori bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdullayev N. Geografiya darslarida ta’limning texnika vositalardan foydalanish. – T.: 1990
2. Qurboniyozov R. Geografiya o‘qitish metodikasi. – T.: 2001.
3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi 2000.



GEOGRAFIYA FANLARINI O'QITISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH MUAMMO VA YECHIMLAR

Ramazonova Nazokat Toshevna

Buxoro viloyati Kogon shahar
1-umumiy o'rta ta'lim maktab
geografiya fani o'qituvchisi
Telefon: +998(97)3055271

Shodmanova Shaxnoza Xalimovna

Buxoro viloyat Kogon shahar
1-umumiy o'rta ta'lim maktab
geografiya fani o'qituvchisi
Telefon: +998(99)0955605

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik jarayon majmuinining zamonaviy darsga qo'yiladigan talablari, o'quvchilarning faollik bilan 'qish va muammolarning mustaqil ravishda yechimini topa olishi, hamda o'quvchilarning o'z imkoniyatlari darajasida nimalarga qodir ekanligini to'la shakllantirishga katta imkoniyatlar yaratib beradigan beradi yangi ta'lim texnologiyalarining mohiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, pedagogik jarayon, metod, tarbiyaviy talab, psixologik talab, gigiyenik talab, didaktik talab, uyg'unlashgan savolli test

*Ma'rifat- tarbiyalanuvchining
hohish va irodasini kerakli
yo'nalishda boshqarish san'atidir.
Abu Nasr Forobiy*

Ta'lim – tarbiyaga yetarlicha e'tibor bermagan mamlakatning kelajagi qanday ravnaq topishini aytish qiyin. Binobarin har bir davlat o'z taraqqiyotiga ta'lim – tarbiya sohasida o'zi belgilagan maqsadlar va ko'zlagan rejalar bilan bog'langan vazifalarga tayanadi. Yangi pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadi o'qituvchi o'quvchilarga samarali bilim berishdan, oqil, ma'rifatli ayni paytda o'zining o'tmishi, ulug' qadriyatlarini, millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan malakali ixtisos egalari bo'lib yetishadigan shaxslarni tarbiyalashdan iboratdir. Bugungi kunda zamonaviy dars berishning turlicha usullari qo'llanilib kelinmoqda.

Pedagogik texnologiyaning asosiy tushunchasi – o'quv jarayoniga tizim sifatida yondashishdir. Bunda ta'lim- tarbiyada ishtirok etuvchi barcha narsa va xodisalar o'zaro funktsional bog'liqda bo'lib bir butunlikni, ya'ni pedagogik jarayon majmuini tashkil qiladi.

Pedagogik jarayon majmuini – muayyan bir vaqt mobaynida bosqichma- bosqich amalga oshirilishi pedagogik texnologiya deyiladi

Zamonaviy darsga qo'yiladigan talablar

-Tarbiyaviy talablar

-Psixologik talablar

-Gigiyenik talablar

-Didaktik talablar

Yangi ta'lim texnologiyalarni keng joriy etish o'quvchilarning faollik bilan 'qish va muammolarning mustaqil ravishda yechimini topish, hamda o'quvchilarning o'z imkoniyatlari darajasida nimalarga qodir ekanligini to'la shakllantirishga katta imkoniyatlar beradi. Pedagogik amaliyotda o'quv-tarbiyaviy maqsadlarga erishish uchun qo'llanilayotgan, tartibga solingan faoliyat usuli metod deb tushuniladi. Bunda o'qituvchining o'qitish faoliyati usullari bir-biriga bog'liqligi ta'kidlanadi. Metod- jarayonning o'zagi, rejalashtirilgan maqsadni yakuniy natija bilan bog'lovchi bo'g'in. Maqsad- mazmun-metodlar-shakllar-o'qitish vositalari tizimidagi rollarni aniqlovchidir.

Ta'lim usullarini har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. Pedagogik texnologiyaning ajralmas qismi bo'lgan test topshiriqlari barcha o'quv fanlarida bilimlarni tekshirishning asosiy usuli bo'lib qoldi.

1.Ko'p javobli testlar.



2. “То’g’ri-noto’g’ri” xildagi savollardan iborat bo’lgan testlar.

3. Uyg’unlashgan savolli testlar.

4. Didaktik testlar.

O’qituvchi tajriba va malakasining uyg’unligi muvaffaqiyatlar garovidir. O’qituvchining ijodkor va tashabbuskor bo’lishi lozimligini buyuk nemis pedagogi A.F. Distervegning fikri ham tasdiqlaydi: “Noqobil o’qituvchi haqiqatni shunchaki aytadi-qo’yadi, yaxshisi esa uni topishga o’rgatadi”.

Xalq ta’limi tizimida faoliyat ko’rsatayotgan o’qituvchi pedagogik texnologiyalar, ta’lim-tarbiya jarayonini faollashtirish usullari va o’qitiladigan fanlar bo’yicha sifatli bilim, ko’nikma, malakalarni hosil qilishni ta’minlovchi pedagogik usullarni qo’llay olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Ishmuhamedov R., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. Ta’lim muassasalari o’qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. - T.: “Iste’dod” jamg’armasi, 2009.

2. Омонов Н.Т. Педагогик texnologiyalar va pedagogik mahorat . - T.: “Iqtisod-moliya” 2009.

3. Abdullayev I.X., Seytdjelilova E.S. Amaliy geografiya fanini o’qitishda innovatsion texnologiyalar. –T.:2015

4. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: “Nihol” nashriyoti, 2013



GEOGRAFIYA FANINING RIVOJLANISH TARIXI

O'rozova Laylo Yusufboyevna

Xorazm viloyati Gurlan tumani

24-maktabning Geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada geografiya fanining tarixi, rivojlanishi va uning rivojiga hissa qo'shgan olimlar haqida ma'lumot beriladi

Kalit so'zlar: geografiya, fan, tarix, ibtidoiy, antik, 2-ming yillikda, O'rta dengiz, Gibraltar bo'g'izi, Afrika qirg'oqlari, Hindiston, Osiyo va Yevropa, O'rta Osiyo, Misr, Eron

Barcha fanlar singari, geografiya ham eng qadimgi va hamisha navqiron fanlardan biri hisoblanadi. Geografik kashfiyotlar, g'oya va bilimlarning rivojlanish xususiyatlariga asoslanib, bu fanning tarixida quyidagi bosqichlarni ajratish mumkin.

Qadimgi yoki antik davr bosqichi. Ibtidoiy odamlarning o'zi yashab turgan joyni o'rganish, yashash uchun qulay joylar topish orqali, dastlabki Geografik bilimlar to'planib borgan.

Eramizdan avvalgi 2-ming yillikda finikiyaliklar O'rta dengizdan Gibraltar bo'g'izi orqali suzib o'tib, Afrika qirg'oqlari bo'ylab Hindistongacha suzib borganlar. Shu paytdan Osiyo va Yevropa nomlari paydo bo'lgan. Bu davrda yunonlar va rimliklar o'sha paytda ma'lum bo'lgan hududlarni tasvirlab yozish bilan birga xaritalarini ham tuzdilar. Eratosfen er.avv. III asrda birinchi bo'lib Yerning kattaligini o'lchadi va "Geografika" nomli kitobini yozib, geografiya fanining mustaqil fan bo'lib chiqishiga asos soldi.

O'rta asrlar bosqichi. Bu davrda geografiya, umuman, ilm-fan, asosan Sharqda, xususan, O'rta Osiyo, Misr, Eronda rivojlandi. Geografiya fani, asosan o'lkashunoslik, kartografiya, geodeziya yo'nalishida rivojlandi. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy IX asrda Yerning sharsimon ekanligini isbotlab, uning o'lchamlarini nisbatan aniq o'lchadi. "Surat-al-Arz" nomli kitob yozib, Sharq geografiyasiga asos soldi. Geografiya fanining rivojida Abu Rayhon Beruniy ning xizmati beqiyos. Uning geografiyaga oid 22 ta asari bo'lib, shundan 12 tasi geodeziya, 4 tasi kartografiya, 3 tasi iqlimshunoslik, 3 tasi mineralogiyaga oid va hozirgi kunda ham dolzarb hisoblanadi.

Buyuk geografik kashfiyotlar bosqichi. XV asrning ikkinchi yarmiga kelib, Yevropada tabiiy resurslar va xomashyoga boy deb hisoblangan Hindiston va Xitoyga yangi yo'llarni topish ishlari boshlandi. Natijada "Buyuk geografik kashfiyotlar" qilindi. Buyuk geografik kashfiyotlar asosan 3 ta yo'nalishda olib borildi:

- 1) janubiy – Afrika bo'ylab;
- 2) g'arbiy – Atlantika okeani orqali;
- 3) shimoliy – Yevrosiyoning qutbiy o'lkalari va shimoliy qirg'oqlari bo'ylab.

Ushbu bosqich 1492-yil ispaniyalik Xristofor Kolumbning Amerikaga 1-sayohatidan boshlanadi. 1498-yili portugaliyalik Vasko da Gama ekspeditsiyasi Afrikani aylanib o'tib, Yevropadan Hindistonga boradigan dengiz yo'lini ochdi.

Ilmiy geografik ishlar bosqichi. XVII asrga kelib fanlarning rivojlanishida keskin ildamlash ro'y berdi. Geografiyada maxsus ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirila boshlandi. Bunday ekspeditsiyalardan eng muhimlari:

1725–1741-yillarda V.Bering va A.Chirikov boshchiligidagi rus ekspeditsiyasi, 1785–1788-yillarda J.Laperuz rahbarligidagi fransuz ekspeditsiyasi, 1768–1779-yillarda J.Kuk boshchiligidagi 3 arotaba dunyo bo'ylab ingliz ekspeditsiyasi. Bu ekspeditsiyalar tomonidan Kuril orollari, Kamchatka va Chukotka yarimorollari, Osiyoning shimoliy qirg'oqlari, Afrika va Janubiy Amerikaning ichki qismlari, Yangi Zelandiya, Yangi Kaledoniya, Janubiy Georgiya, Jamiyat, Gavayi, Kuk va boshqa orollar o'rganildi.

IX asr va XX asrning 1-yarmida geografiya fani sezilarli darajada rivojlandi. Bu bosqichga kelib milliy geografiya jamiyatlari tashkil etilishi boshlandi. Jumladan, Fransiya (1821), Germaniya (1828), Buyuk Britaniya (1830), Rossiya (1845), Turkistonda esa 1897-yilda tuzilgan. Ko'pgina davlatlar tomonidan yirik ilmiy tadqiqot ekspeditsiyalari uyushtirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Geografiya.uz
2. Ziyonet.uz



GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION METODLAR

Sultonova Fazilat

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani
4-son umumiy o'rta ta'lim
maktabining geografiya fani o'qituvchisi
Sultanova8224@mail.com
+99899386 7310

Annotatsiya: Mazkur makolada geografiya ta'limida innovatsion metodlarning qo'llanilishi va Geografiya fanining bugungi kundagi jamiyatdagi ro'li, ahamiyati vazifalari haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Fikr, g'oya, metod, muammo, interfaol, ta'lim

Bugungi ta'lim jarayoni zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'qitishning interaktiv usullaridan foydalanib bilim berishni taqozo qilmoqda. Interfaol metodlardan foydalanib tashkillashtirilgan darslar o'quvchilarni chuqur erkin fikrlashga, topqirlikka, muammolarni yechimini topishga, birgalikda ish olib borishga o'rgatadi. O'quvchilar bilan birga ishlash o'zaro do'stlik munosabatlarini shakllantirishga, fikrlar, g'oyalar almashinishig, kichik guruhlarda ishlash o'quvchilar bilan yakka tartibda ko'proq shug'ullanish imkoniyatini beradi. Bugungi Geografiya ilgarigidek tasvirlovchi mohiyatda emas, "Nima?" "Qayerda?", "Qancha?" savollariga emas, "Nima?", "Qayerda?", "Qancha?", "Nima sababdan?", "Qanday foydalanish kerak?", "Yahshilash uchun nima qilish kerak?" savollariga javob topuvchi keng qamrovli fanga aylandi. Bugungi kunda zamonaviy geografiya oldiga qo'yilgan vazifalar vaqt o'tishi bilan zamon va jamiyatning o'zgarishiga qarab o'zgarib boradi. Keng qamrovli jamiyatning turli xil muommolari yechimini o'rganilmagan hududlar qirralarini ochuvchi fan bo'lib shakllanmoqda. Endilikda geografiya fani oily ta'lim muassasalarida kirish imtihonlarida faqat geografiya yo'nalishigagina emas bir qancha yo'nalishlarga asosiy fan sifatida qo'yildi. Tabiat va Jamiyat o'rtasidagi nomutanosibliklarni uyg'unlashtirish muhimdir. O'tkazilayotgan tadqiqotlar O'zbekistonda o'suvchi har bir o'simlikni mukammal o'rganib jamiyatimizning turli jabhalarida xususan atir-upa (parfyumeriya) sohasida jahonga tanilish imkoniyatini bermoqda. Bunga kavrak o'simligini misol qilish mumkin. Fanimizning jamiyatdagi ahamiyatini ana shunday misollar bilan tushuntirish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini yanada orttiradi.

Dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish juda muhimdir. Chunki bugungi kunning o'quvchisi qo'lidagi kitobda berilgan matnni bir ko'z yugurtirib hammasini o'zi tushunib oladi. Turli xil manbalardan, internetdagi yangi ma'lumotlardan foydalanish, AKT dan samarali foydalana olish jamiyatda o'qituvchining obro'sini oshishiga ham yordam beradi. Chunki yoshlarimizning aksariyati ana shunday vositalarga qiziqishi yuqori bugungi kunda. Xususan men o'z darslarimda ko'proq katta sinflarda (8-9-10) "Aqliy hujum", Muammoli metodlardan kengroq foydalanaman. O'quvchiga faqat ma'lumotlarni berish emas, nima sababdan ana shunday voqea hodisalar yuz berishini tushunib olishlariga yordam berish zarur. Misol uchun 8-sinf "O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi" darsligidagi "Aholi va Inson omili" mavzusida o'quvchilarga quyidagi muommoli savollarni berishimiz mumkin.

1. Nima sababdan 1945-1960 yillarda O'zbekiston aholisining jinsiy tarkibida erkaklar salmog'i juda kam bo'lgan?

Bugungi kunga kelib jinsiy tarkibdagi holat muvozanatlashganini kuzatishimiz mumkin. Albatta o'quvchilar mustaqil fikr yuritib 1941-1945 yillar- dagi qirg'inbarot urush haqida yetarlicha ma'lumotga ega. Aynan urushga aksariyat erkaklar jalb qilinishi va halok bo'lganligi sababli shundayligini aytib bera oladilar.

2. 1989- 2013 yillarda O'zbekiston aholisining milliy tarkibidagi o'zgarishlar sabablarini ham o'quvchilar bilan "bahs-munozara" metodi yordamida muhokama qilib o'tish mumkin.

Quyida milliy tarkibni ko'rib chiqamiz.

| | 1989 yil | 2013 yil |
|---------------|----------|----------|
| O'zbeklar | 71.5% | 82.9 % |
| Qoraqalpoqlar | 2 % | 2.5% |
| tojiklar | 4,5 % | 4.8% |



| | | |
|------------------|-------|-------|
| ruslar | 8.2 % | 2.7% |
| qozoqlar | 4 % | 2.7% |
| boshqa millatlar | 9.8 % | 4.4 % |

demak 1989 yil O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida sobiq sovet davridagi milliy tarkib bilan bugungi kundagi tarkibni taqqoslang ? Ushbu mazmundagi savollar bilan diagrammalarni muhokama qilish o'quvchilar xotirasida O'zbekiston milliy tarkibidagi millatlar salmog'i saqlanib qolishiga erishishimiz mumkin deb o'ylayman.

Shu va shunga o'xshash savollarni "Kichik guruhlarda ishlash" metodi yordamida sinfni guruhlarga bo'lib ham berish mumkin.

5-6- sinflarda ko'proq o'yin faoliyatidan foydalanish o'quvchilar diqqatini jalb etishda samaraliroq. Masalan o'yinlarni mavzuga moslab tashkil qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

6-sinf "Materiklar va Okeanlar tabiiy geografiyasi" kursini o'rganishda materiklarning qirqim xaritalaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Karton qog'ozdan qirqilgan materiklarning qirqim xaritasiga qarab o'quvchilar qaysi materik ekanligini aytib daftarlariga chizib olib bemalol yozuvsiz xarita sifatida ham foydalanishlari mumkin. Nafaqat materiklar balki O'zbekiston, O'rta Osiyo o'lkasining xaritalarini ham yasash mumkin. Qirqim xaritalarga muhim geografik ob'ektlar joylashgan hududlarni so'roq belgisi qo'yib qo'ysak shu yerda qaysi ob'ekt joylashganini aytib berishlari mumkin. Shuningdek, 5-6- sinflarda ham muommoli metoddan foydalanish mumkin. Misol uchun Afrika materigini o'tganda "Nima uchun?" sxemasidan foydalansa bo'ladi.

- Nima uchun Afrikaning aynan shimoliy va janubiy hududlarida katta cho'llar vujudga kelgan?

- Nima uchun tropik mintaqa hukmron bo'lgan hududlarda kam yomg'ir yog'adi?

- Nima uchun Afrikaning ekvator chizig'i kesib o'tgan hududlarda doimiy yashil o'rmonlar vujudga kelgan?

- Nima uchun Afrikaning Atlantika okeani sohillarida Namib cho'li hosil bo'lgan?

- Nima uchun sovuq oqim oqib o'tgan sohillarda cho'l hosil bo'lib, iliq oqim oqib o'tuvchi hududlarda o'rmonlar vujudga keladi?

Shuningdek "Xotira mashqi" ham ko'pgina ma'lumotlarni takrorlashda foydali, misol uchun "Kim ko'proq daryo nomlarini aytadi" yoki O'zbekistondagi shahar nomlarini jutlikda aytish mumkin. Viloyatlardagi tuman nomlarini aytish mumkin.

Jahon mamlakatlarini poytaxtlari bilan aytish mumkin.

Dars davomida qiziqarli ma'lumotlardan, dunyo mo'jizalaridan misol keltirib, dunyo yangiliklaridan kengroq foydalanish dars samaradorligini yanada oshishiga yordam beradi.

Bugungi ta'lim sohasida amalga oshayotgan islohatlar aynan o'qituvchilarning jamiyatdagi obro'sini oshirishga qaratilgan ekan biz ham o'z imkoniyatlarimizdan to'la foydalanib, bor kuchimiz bilan o'quvchilarga bilim berib, sa'viyasini oshirishimiz kerak. Eng avvalo o'z fanimizni jamiyatda, inson hayotida muhim ahamiyat kasb etishini o'quvchilar ongiga singdirishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ochilov M. Yangi pedagogik tehnologiyalar. Qarshi : Nasaf. 2000yil.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 28-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(25-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.05.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000